



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QISHLOQ VA SUV XO'JALIGI VAZIRLIGI
SAMARQAND QISHLOQ XO'JALIK INSTITUTI



Agronomiya fakulteti. Agrokimyo, tuproqshunoslik va
o'simliklarni himoya qilish kafedrası «5410300 – O'simliklar
himoyasi va karantini» ta'lim yo'nalishi bakalavriat bitiruvchisi

Mansurov Sobit Meliqulovichning

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

**Mavzu: "Tamaki kasalliklari va ularga qarshi kurash
choralari"**

Ilmiy rahbar: assistent

T.Ch.G'oziyev

Bitiruv malakaviy ishi Agrokimyo,
tuproqshunoslik va o'simliklarni
himoya qilish kafedrası yig'ilishida
muhokama qilindi va DAK himoya-
siga tavsiya etildi.

Agronomiya fakulteti dekani,
dotsent D.S.Normurodov
" " " " 2015 yil

Kafedra mudiri, professor

F.H.Xoshimov

"12" mart 2015 yil

Bayonnoma № 20

Samarqand – 2015

САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ

Факултет Агрономия

Таълим йўналиши 5410300 – Ўсимликлар химояси ва карантини
(коди, тўлиқ номи)

Кафедра: Агрохимё, тупроқшўнослик ва ўсимликларни химоя қилиши



МАЛАКАВИЙ БИТИРУВ ИШ БЎЙИЧА ТОПШИРИҚ ВАРАҚАСИ

1. Ижрочи Мансуров Соби Маммутов
(Ф.И.Ш.)

2. Мавзу: Талани касалликлари ва уларга қарши қўрилган чора-тадбирлар

Мавзу институт Илмий кенгашининг " 28 " август 2014 йилдаги 1 сонли қарори билан тасдиқланган

3. Мавзунинг долзарблиги, назарий ва амалий (иктисодий, ижтимоий, экологик илмий-техник, меҳнат муҳофазаси, ҳаёт хавфсизлиги ва ҳ.к.) аҳамияти

Талани касалликлари пероидлар касаллик-лари, пчелилардан вирусли касалликлар, шифони дариш қетириб, ҳо-сил шифони ва сифонига ҳаёт солади.

Талани касалликларини ўрганиш, ҳаёт қўрилган чора-тадбирларни ишда қўрилган чора-тадбирларни расм элади.

4. Малакавий битирув ишини бажариш учун тавсия қилинадиган илмий, ўқув-услубий ва бошқа ахборот манбалари (дарслик, ўқув қўлланмалари, маърузалар курси, монография, илмий мақолалар ва ҳ.к.)

- Қасанов Ё.В. ва иш, Сийдаво. помидорлар
- Касалликлар ва уларга қарши қўрилган чора-тадбирлар
- Попов В. Общедоступная информация, 2005
- Филиппов С.Е. Болезни табака и их борьба
- и. Красновар 2007.
- Қасанов А. ва иш, Қасалликларни оқоёта.
- Қасанов А. ва иш, 2014.
- www.vuzovod.ru.com.
- www.tadac.com.
- www.tadac.ru.

5. Малакавий битирув иши бўйича маълумотлар тўплаш, ҳамда тадқиқот ишлари олиб бориш манбалари ва жойлари (ўқув зали ва хоналари, Ахборот Ресурс Маркази, лабораториялар, таъкилот, корхона, илмий ёки таълим муассасаси)

Илмий раҳбар А.И. Юсупов, кафедра лаборатория-тарбиялари, Илмий раҳбар С.В. Юсупов

6. Малакавий битирув ишини тайёрлаш бўйича амалга ошириладиган ишлар режаси

№	Ишнинг мазмуни	Тахминий хажми (бет)	Ижро муддати	Изоҳ
1	Масаланинг қўйилиши. Мавзунинг долзарблиги, ечилиши ёки ўрганилиши лозим бўлган масаланинг моҳияти ва мақсадини ёритиб бериш (кириш қисми)	4-6	Январ	
2	Мавзу бўйича маълумотларни тўплаш ва таҳлил қилиш (ёрдамчи мулоҳаза ва фактлар)	10-15	Февраль	
3	Олиб борилган тажрибалар, тадқиқот ишлари, натижаларни таҳлил қилиш ва тартибга солиш (параграф, боб, бўлим ёки қисмлар бўйича)	10-15	Март	
4	Олинган тажрибаларнинг назарий ва амалий аҳамияти бўйича хулоса бериш ҳамда тадқиқ соҳалари ва усулларига оид таклифлар тайёрлаш	10-15	Апрел	
5	Битирув ишини расмийлаштириш ва унинг химояси учун зарурий кўргазмалар воситаларни (жадваллар, расмлар, графиклар, диаграмма, макет, стенд ва х.к.) тайёрлаш	10-15	Май	
6	Дастлабки химояга тайёргарлик кўриш ва химояга чиқиш матнини тайёрлаш	3-6	Май	
7	Битирув иши бўйича қўшимча маслаҳатчилар			

Илмий раҳбар

Кафедра мудири

С.В. Юсупов Т. Ҳошимов
А.И. Юсупов Ҳ. Ҳошимов

«Агрокимё, тупроқшунослик ва ўсимликларни химоя қилиш»
кафедрасининг 22 - сонли мажлис

БАЁНИДАН КЎЧИРМА

«12» май 2015 йил

Самарқанд шаҳри

Қатнашчилар: Ф.Ҳошимов – кафедра мудир, профессор,
П.Узоқов – кафедра профессори, М.Ҳайитов – кафедра
доценти, Б.Абдуллаев - кафедра доценти, Т.Ортиқов -
кафедра доценти, Э. Умурзоқов - к.х.ф.доктори, С.Аҳмедов
- кафедра катта ўқитувчиси, О.Назаров – кафедра катта
ўқитувчиси, М.Машрабов - кафедра ассистенти, А.Садинов -
кафедра ассистенти, Ш.Ҳазратқулов - кафедра ассистенти, А.
Худойқулов- кафедра ассистенти, О. Пўлатов - кафедра
ассистенти, Л.Сонамян - кафедра лаборанти, М. Ғуломова-
кафедра лаборанти, ҳамда кундузги бўлимнинг кафедрада
малакавий битирув иши бажарган 57 нафар талабаси.

Кун тартиби:

Кундузги бўлим битирувчиси Мансуров Собит Меликуловичнинг «Тамаки касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамаси.

Сўзга чиқди:

Кафедра мудир, профессор Ф.Ҳошимов Ўзбекистон Республикаси ОўМТВ нинг 9.06.2010 йил 225 сонли буйруғи билан тасдиқланган «Олий ўқув юрлари бакалаврларининг малакавий битирув иши» тўғрисидаги низомига асосан ҳар бир малакавий битирув иши кафедрада муҳокама қилингандан кейин ДАК химоясига тавсия этилиши кераклигини айтиб ўтди. Кафедрада кундузги бўлим битирувчиси Мансуров Собит Меликуловичнинг «Тамаки касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамасини эшитамиз.

Шундан сўнг Мансуров Собит Меликулович ўз малакавий битирув иши мавзусини долзарблигини, аҳамиятини, илмий янгилигини, олинган натижаларни ва қилинган хулосаларни маъруза қилди.

Маърузачига мавзу юзасидан 4 та савол берилди, у берилган саволларга жавоб берди.

Муҳокамала Ф.Ҳошимов, П. Узоқов, Т. Ортиқов, С. Аҳмедов ва Б. Абдуллаевлар иштирок этдилар.

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Кундузги бўлим битирувчиси Мансуров Собит Меликуловичнинг «Тамаки касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари» мавзусидаги малакавий битирув иши барча кўрсаткичлари бўйича ДАК талабларига жавоб бериши инобатга олинди, у ДАК да химоя қилиш учун тавсия этилсин.

Мажлис раиси, профессор

Ф.Ҳошимов

Котиба

М.Ғуломова



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚИШЛОҚ ВА СУВ ХЎЖАЛИГИ
ВАЗИРЛИГИ**

САМАРҚАНД ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИК ИНСТИТУТИ

*«Агрокимё, тупроқшунослик ва
ўсимликларни ҳимоя қилиш»
кафедраси*

*5410300 – Ўсимликлар ҳимояси ва
карантини таълим йўналиши
бакалавриат битирувчиси*

МАНСУРОВ СОБИТ МЕЛИҚУЛОВИЧНИНГ

БИТИРУВ МАЛАКАВИЙ ИШИ

Тамаки касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари



Илмий раҳбар, ассистент _____ *Т.Ч.Ғозиев*

*Малакавий битирув иши Агрокимё,
тупроқшунослик ва ўсимликларни
ҳимоя қилиш кафедраси йигилиши-
да муҳокама қилинди ва ДАК ҳимоя-
сига тавсия этилди. Кафедра мудири,
профессор _____ Ф.Ҳ.Ҳошимов
«___» _____ 2015 йил
Баённома № _____*

*Агрономия факултети
декани, доцент*

_____ *Д.С.Нормуродов*

«___» _____ 2015 й

САМАРҚАНД-2015

«Агрокимё, тупроқшунослик ва ўсимликларни химоя қилиш»
кафедрасининг _____ - сонли мажлис

БАЁНИДАН КЎЧИРМА

«__»_май_ 2015 йил

Самарқанд шахри

Қатнашдилар: Ф.Ҳошимов – кафедра мудири, профессор, П.Узоқов – кафедра профессори, М.Ҳайитов – кафедра доценти, Б.Абдуллаев - кафедра доценти, Т.Ортиқов - кафедра доценти, Э. Умурзоқов - к.х.ф.доктори, С.Аҳмедов - кафедра катта ўқитувчиси, О.Назаров – кафедра катта ўқитувчиси, М.Машрабов - кафедра ассистенти, А.Садинов - кафедра ассистенти, Ш.Ҳазратқулов - кафедра ассистенти, А. Худойқулов- кафедра ассистенти, О. Пўлатов - кафедра ассистенти, Л.Сонамян - кафедра лаборанти, М. Ғуломова- кафедра лаборанти, ҳамда кундузги бўлимнинг кафедрада малакавий битирув иши бажарган 57 нафар талабаси.

Кун тартиби:

Кундузги бўлим битирувчиси Мансуров Собит Меликуловичнинг «Тамаки касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамаси.

Сўзга чиқди:

Кафедра мудири, профессор Ф.Ҳошимов Ўзбекистон Республикаси ОўМТВ нинг 9.06.2010 йил 225 сонли буйруғи билан тасдиқланган «Олий ўқув юртлари бакалаврларининг малакавий битирув иши» тўғрисидаги низомига асосан ҳар бир малакавий битирув иши кафедрада муҳокама қилингандан кейин ДАК химоясига тавсия етилиши кераклигини айтиб ўтди. Кафедрамизда кундузги бўлим битирувчиси Мансуров Собит Меликуловичнинг «Тамаки касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари» мавзусидаги малакавий битирув иши муҳокамасини эшитамиз.

Шундан сўнг Мансуров Собит Меликулович ўз малакавий битирув иши мавзусини долзарблигини, аҳамиятини, илмий янгилигини, олинган натижаларни ва қилинган хулосаларни маъруза қилди.

Маърузачига мавзу юзасидан 4 та савол берилди, у берилган саволларга жавоб берди.

Муҳокамада Ф.Ҳошимов, П. Узоқов, Т. Ортиқов, С. Аҳмедов ва Б. Абдуллаевлар иштирок этдилар.

ҚАРОР ҚИЛИНДИ:

1. Кундузги бўлим битирувчиси Мансуров Собит Меликуловичнинг «Тамаки касалликлари ва уларга қарши кураш чоралари» мавзусидаги малакавий битирув иши барча кўрсаткичлари бўйича ДАК талабларига жавоб бериши инobatга олиниб, у ДАК да химоя қилиш учун тавсия этилсин.

Мажлис раиси, профессор

Ф.Ҳошимов

Котиба

М.Ғуломова



KIRISH

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999 yil 15 noyabrdagi 496 sonli "Tamaki sanoatini rivojlantirishning qo'shimcha chora tadbirlari to'g'risida" gi qaror qabul qilindi. Bu qarorda tamakichilikni yagona rivojlantirish uchun yaratilgan yangi navlarni ishlab chiqarishga joriy etish, uni kasalliklari, zararkunandalari va begona o'tlariga qarshi o'g'unlashgan usulda kurashib, hosildorlik va hosil sifatini yuqori bo'lishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan.

Respublikamiz tamakichiligini rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri, yetishtirilayotgan tamaki xom ashyosining dunyo tamaki bozorida raqobatbardoshligini, bunda o'zini munosib o'rnini egallash bilan birga Respublikamiz tamakichiligini ta'minlashga qaratilgan. Bu boradagi asosiy yo'nalishlardan biri Respublikamizning tog' va tog' oldi hududlaridagi unumdorligi past bo'lgan va sug'orish imkoniyati cheklangan maydonlarda istiqbolli navlarni joriy qilish, tuproq tabiiy namligidan foydalanish hisobiga, kasallik va zararkunandalarga qarshi uyg'unlashgan kurash usullarini qo'llab, yuqori va sifatli tamaki xom ashyosini yetishtirib, bu hududda dehqonchilikning iqtisodiy samaradorligini oshirish hisoblanadi.

Tamaki xom-ashyosini sifatini belgilovchi omillardan biri uni turli xildagi kasalliklardan himoya qilish bo'ladi.

Tamaki kasalliklar bilan qattiq zararlanadigan o'simliklar guruhiga kiradi. Uni bir qator zamburug'li va virusli kasalliklar zararlaydilar. Ularga o'z vaqtida qarshi kurash chorasi qo'llanilmasa, hosilni 50-60% yo'qotiladi, olingan hosilni ham sifati talabga javob bermaydi.

Tamakida bir necha turdagi kasalliklar ildiz chirish, qora ildiz chirish va virusli kasalliklar zarar keltiradi. Ularning ichidan eng asosiylari virusli kasalliklar bo'lib, ayniqsa keyingi yillarda ancha kuchayib bormoqda.

O'simliklarni himoya qilish tadbirlarini unumli va samarali amalga oshirish tamaki hosilini zararkunanda va kasalliklardan saqlanishning asosiy omillaridan biridir.

Ko'p yillar davomida kasalliklarga qarshi surunkasiga qo'llanilgan kimyoviy kurash vositalari tabiatdagi turlar o'rtasidagi muvozanatni buzilishiga sabab bo'ladi va uni ifloslanishiga olib keldi.

Hozirgi vaqtda kasalliklarga qarshi kurashda o'yg'unlashgan himoya usuliga e'tibor berilmoqda va ko'pgina xo'jaliklarda keng ko'lamda qo'llanilmoqda. Ushbu kurash usuli keng ma'noga ega bo'lib, barcha kurash vositalarini kerakli vaqtda navbatlab zararkunandalarni iqtisodiy zarar keltirish chegarasini inobatga olgan holda ishlatish, tabiatdagi foydali hasharotlar ko'payishiga va o'simlikni sog'lom rivojlanishiga qulay sharoit yaratishdan iborat.

Ko'pchilik olimlarning fikricha, kasalliklarga qo'llaniladigan har qanday kurash vositalarini qo'llaganda ularni to'liq yo'qotishni o'ylamasdan, balki ularni sonini kamaytirib turishga erishmoq lozimdir.

Shu narsani alohida qayd etish kerakki, ona tabiatning o'zi ham evolyusion taraqqiyot davomida boshqa mavjudotlar singari kasallik tug'diruvchi organizmlar olamida ham ma'lum muvozanatni saqlaydi.

Ana shularni hisobga olib malakaviy bitiruv ishimizda tamakida uchraydigan kasalliklarni rivojlanishi va zararini o'rganib, ularga qarshi kurash yo'llarini samaradorligini aniqlashni o'z oldimizga maqsad qilib oldik.

Bunda biz qo'yidagi masalalarni o'rgandik,

1. Kasalliklarni rivojlanishini hisobga olish
2. Kasalliklarni zararlilik darajasini hisobga olish

I. BOB.

ADABIYOTLAR SHARHI

Birlashgan Millatlar Tashkiloti qoshidagi FAO ma'lumotlariga qaraganda jahonda o'simliklar kasalliklari, zararkunandalari va begona o'tlari tufayli har yili hosilning 30-35% nobud bo'lmoqda.

Shu jumladan donli ekinlardan olinadigan hosilning 35%, kartoshkaning 32,3%, qand lavlagining 24,5%, mevalarni 23,6% va texnik ekinlarni 22, 1% nobud bo'ladi (Bondarenko 1986).

Tamakida asosan virusli kasalliklar ko'plab uchrab, jiddiy zarar yetkazadi.

1.1. VIRUSLARNING BIOLOGIK XUSUSIYATLARI

Viruslar va viroidlar inson, hayvon va o'simliklarda kasallik qo'zg'atuvchi juda mayda (submikroskopik – yorug'lik mikroskoplarida ko'rinmaydigan) organizmlardir. Ular hujayra tuzilishiga ega emas, sun'iy ozuqa muhitlarida o'smaydi va faqat xo'jayin organizmning tirik hujayralari ichida hayot kechiradi.

1886 yilda gollandiyalik olim Adolf Mayer mozaika bilan zararlangan tamaki bargidan olingan shira sog'lom o'simlikka kiritilganda unda ham mozaika rivojlanishini aniqladi. Kasal o'simlikda va undan olingan shirada zamburug'lar mavjud bo'lmagani sababli, A. Mayer kasallikni bakteriya qo'zg'atadi, deb xulosa qildi.

1892 yilda rus tadqiqotchisi D. I. Ivanovskiy zararlangan tamaki bargi shirasidagi qo'zg'atuvchi organizm bakterial filtrdan o'ta olishini, demak, qo'zg'atuvchi bakteriya emasligini isbotladi. D. I. Ivanovskiy tamaki mozaikasini yoki birorta bakteriyaning toksini, yoxud juda ham mayda, bakterial filtrdan ham o'ta oladigan bakteriya qo'zg'atishi mumkin, degan xulosaga keldi.

1898 yilda yilda Martinus Uillem Beyerink (Martinus Willem Beijerink) (1851-1931) D. I. Ivanovskiy tajribalaridan ba'zilarini takrorladi va tamaki mozaikasini mikroorganizm emas, balki "infeksion tirik suyuqlik" qo'zg'atadi va bu suyuqlikning nomi "virus" deb xulosa qildi.

Ammo yana 40 yilcha vaqt davomida (1935 yilgacha) hych bir olimda virus nima ekanligi yoki u nimaga o'xshashligi haqida g'oya paydo bo'lmadi. Bu vaqt davomida qo'zg'atuvchilari virus hisoblangan bir qancha o'simlik kasalliklari (jumladan, bodring, pomidor, loviya, kartoshka, mevali va rezavor mevali daraxtlarning belgilari tamaki mozaikasinikiga o'xshash bo'lgan kasalliklari) bayon qilindi, ammo ularning qo'zg'atuvchilarini aniqlasha olmadilar, chunki viruslarning tabiati, kattaligi, shakli, kimyoviy xususiyatlari va ko'payish usullari bu davr davomida noma'lumligicha qoldi.

Buning sababi – viruslarni odatdagi mikrobiologik tadqiqot usullari yordamida tadqiq qilib bo'lmasligi edi. Jumladan, viruslar juda mayda bo'lgani uchun ularni oddiy yorug'lik mikroskoplarida ko'rib, tekshirish mumkin emas, viruslarni sun'iy ozuqa muhitlarida o'stirish ham mumkin emas edi.

Viruslarni o'rganish uchun yangi metodlarni qo'llash lozim edi. Bu yo'nalishda keyingi muvaffaqiyatga amerikalik bioximik va virusolog *Uendell Meredit Stenli* (Wendell Meredith Stanley) (1904-1971) erishdi. U 1935 yilda kimyoviy metodlar yordamida tamaki mozaikasi virusi (TMV) bilan zararlangan tamaki barglaridan olingan shiradan VTM xususiyatlariga ega bo'lgan kristallik oqsil preparatini ajratdi. Bu preparatning suvdagi eritmasi bilan tamaki barglarini sun'iy zararlaganda o'simlikda mozaika kasalligining xarakterli belgilari paydo bo'ldi.

U. Stenlining tadqiqotlari viruslarning xususiyatlarini keng miqyosda o'rganishga yo'l ochib berdi. Yana bir qator viruslar kristallik shaklda ajratib olindi va ularning kimyoviy tarkibi aniqlandi. 1937 yilda ingliz olimi *F. Bouden* virus kristallari tarkibida oqsildan tashqari, barcha tirik hujayralarda mavjud bo'lib, organizmlarning irsiy belgilari nasldan naslga o'tishini ta'minlovchi nuklein kislota ham mavjudligini isbotladi.

Fitopatogen zamburug'lar kabi viruslar ham o'simlik kasalliklarining muhim qo'zg'atuvchilari hisoblanadi. Ular o'simliklarda keng tarqalgan va o'ta zararli kasalliklar (*virozlar*) qo'zg'atadi. Boshqa o'simlik kasalliklaridan farqli o'laroq, virus kasalliklarida patologik jarayon kechishining o'ziga xos xususiyatlari

mavjud. Fitopatogen viruslar bilan zararlangan o'simliklarda, boshqa qo'zg'atuvchilar bilan zararlanishga nisbatan, *latentlik* hodisasi ancha ko'proq uchraydi; bunda o'simlik sistemali zararlangan bo'lishiga qaramasdan, virozning tashqi belgilari namoyon bo'lmaydi, ammo u boshqa o'simliklar uchun kasallikning latent manbai bo'lib xizmat qiladi.

Keyingi o'n yilliklarda aniqlangan fitopatogen viruslarning soni keskin ko'paydi. Hozir viruslar bilan zararlanmaydigan bironta ham madaniy o'simlik turi yo'q. Viruslar bilan zararlangan ekin maydonlari kengaymoqda va hosil yo'qotilishi oshmoqda. Aniqlangan virus kasalliklarining soni oshishi zamonaviy diagnostika usullari ishlab chiqilishi hamda ko'p ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilishi bilan bog'liqdir.

Virozlar tufayli yo'qotiladigan hosil miqdorini aniqlash qiyin, chunki virozlarni har doim to'g'ri aniqlashmaydi. Ko'p hollarda virozlar keltiradigan zararni noqulay ob-havo va tuproq sharoitlariga to'nkashadi. Hisob-kitoblarga ko'ra barcha ekinlarning kasalliklar va zararkunandalar tufayli yo'qotiladigan hosilining taxminan 20 foizi viruslar tufayli kuzatilar ekan. Ko'pincha viruslar o'simliklarni o'ldirmaydi, ularning zarari hosil miqdori va sifati pasayishi, ekin zaif, boshqa kaslliklarga va past haroratga chidamsiz bo'lib qolishi, kasal o'simliklardan olingan urug' sifatsiz va unuvchanligi past bo'lishi bilan ifodalanadi.

Virus bilan zararlangan o'simliklardan olinadigan ozuqa va yem-xashakning sifati hamda mahsulotlarning ularni qayta ishlashga yaroqliligi o'zgaradi. Misol uchun, virus sariqligi bilan zararlangan qand lavlagining ildizmevalaridagi qand miqdori 1-2% ga pasayishi mumkin, natijada qandni ekstraksiya qilish va tozalash jarayonlari murakkablashadi. Har xil viruslar bilan zararlangan kartoshka tuganaklaridagi kraxmal miqdori 1,5-2% ga kamayadi.

Yetuk viruslarning nukleoproteid zarrachalari *virion* deb ataladi. Ularning ko'pchiligi RNK ga va faqat ba'zilar DNK ga ega (boshqa guruhlariga mansub bo'lgan kasallik qo'zg'atuvchilari hujayralarida har ikki xil nuklein kislotalari mavjud). Viruslarning nuklein kislotalari o'sish va bo'linib ko'payishga qodir

emas. Ular faqat o'simlik hujayralarini nuklein kislotalari bilan zararlaganda, o'simlikning ribosomalaridan foydalanib ko'payadi; bu *absolyut parazitizm* hisoblanadi. Fitopatogen viruslarning ko'pchiligida infeksiyon agent funksiyasini RNK (juda kam hollarda DNK) bajaradi, ular oqsildan tashkil topgan qobiqqa ega. Hujayraga kirgan virusning oqsil va nuklein kislotasi ajralib ketadi. Nuklein kislotasi hujayraning irsiy apparatiga qo'shilib, u virusning yangi nuklein kislotalari va oqsil qobiqlari sintez qilinishini ta'minlaydi; ulardan esa hujayra ichida yangi virionlar yig'iladi. Yangi virionlar o'tkazuvchi sistema (floema va ksilema) orqali o'simlikning barcha qismlariga tarqaladi.


Fitopatogen viruslarning ko'pchiligini quyidagi 4 ta: *tayoqcha* va *ipsimon* (2000x10 nm gacha), *sfera* (diametri 17-75 nm) va *basilla* (250x70 nm) shaklli morfologik guruhlarga bo'lish mumkin. Misol uchun, tamaki mozaikasi virusi tayoqcha shaklli, uzunligi 300 nm gacha va eni 16 nm atrofida. Bu belgilar har bir virus turi uchun xarakterli.

Virionlar (ularning nuklein kislotalari) ko'payishi *replikasiya* deb ataladi. Replikasiya paytida irsiy o'zgargan shakllar – virus *shtammlari* hosil bo'ladi. Bu jarayon tufayli oldin viruslar bilan zararlanmaydigan ekin navlari chidamliligini yo'qotadi. Fitopatogen viruslarning ko'p shtammlari aniqlangan, masalan VTM ning har xil o'simlik tur va navlarini zararlash qobiliyati, kasallik belgilari, fizik va kimyoviy xususiyatlari bo'yicha farqlanuvchi 200 tadan ko'proq shtammi mavjud.

Viruslarning atrof-muhit faktorlari ta'siriga chidamliligi har xil va bu belgidan foydalanib ularning turlarini aniqlash mumkin. Viruslar *in vitro* ikki guruhga: turg'unlar va bardoshsizlarga bo'linadi. *Turg'un viruslar* yuqori harorat, muhit nordonligi va boshqa faktorlar ta'sirida halok bo'lmaydi. Misol uchun VTM 80-90°S da isitishga 10 min davomida chidaydi, o'simlikdan siqib olingan suvida (shirasida) 50 yildan uzoq saqlanadi, hatto quruq tamaki mahsulotida va sigaretalar ustida o'simliklarni zararlash xususiyatini yo'qotmaydi. Ammo viruslarning ko'pchiligi bunday sharoitlarga chidamsiz va ular *bardoshsiz viruslar* hisoblanadi.

Viruslarning xususiyatlaridan biri – muayyan sharoitda kristall hosil qilishidir. Kristall holatidagi viruslar parazitlik xususiyatini yo'qotmaydi va to'qimaga kiritganda, o'simlikda kasallik qo'zg'atadi.

Viruslar tarqalishi. Viruslar kontakt-mexanik usul bilan (o'simlik qismlari bir-biriga tekkanida, ekinga ishlov berish jihozlari va uskunalar, ishchilarning qo'llari va kiyimlari va h.; misollar – VTM, kartoshka X-virusi, mozaika qo'zg'atuvchi viruslar va b.), vektorlar (kasallik tashuvchilar) – shiralar, qandalalar, saraton (sikada) lar, tripslar, kanalar, nematodalar va zamburug'lar – vositasida (misollar – lavlagi va loviya mozaikalari, bodringning 1-mozaikasi, kartoshkaning Y-, A- va M- viruslari, pomidor olachipor so'lishi, qovoq mozaikasi va b.), urug', gul gangi bilan va boshqa usullar yordamida tarqaladi.



1 rasm. Virus bilan mexanik zararlanishda infeksiyon jarayonning boshlang'ich bosqichlari:

a – virus zarrachasi zararlangan hujayraga kirishi; b – uning nuklein kislotasi erkin holga kelishi; v – virus nuklein kislotasining replikasiyasi va oraliq mahsulotlar sintezi; g – transport virus zarrachalari hosil bo'lishi, ular plazmodesmalarda tarqalishi, virus qobig'i oqsillari sintezi va virus yig'ilishi; d – virus o'tkazuvchi sistemada tarqalishi (*chapda* – floemada transport zarrachalari shaklida, *o'ngda* – ksilemada transport va yetuk zarrachalar shaklida) (Popkova va b., 2005).

Muhit faktorlarining ba'zi viruslarga ta'siri

(Prosenko, 1964*)

1 jadval.

Virus	Inaktivasiya harorati, °S	O'simlik shirasida saqlanish vaqti	Quritilganda saqlanish vaqti
Tamaki mozaikasi	93	Ko'p yillar	Ko'p yillar
Kartoshka X-virusi	79	Ko'p yillar	Ko'p yillar
Tamaki xalqa dog'lanishi	60	3 sutkacha	Darhol halok bo'ladi
Bodring mozaikasi	60-70	3-4 sutka	Darhol halok bo'ladi
Loviya mozaikasi	58	2-3 sutka	Darhol halok bo'ladi
Kartoshka Y-virusi	52-55	Bir necha soat	Darhol halok bo'ladi
Pomidor olachipor so'lishi	42	5 soatdan kam	Darhol halok bo'ladi

* Ma'lumotlar Popkova i dr., 2005 dan olingan.

Ba'zi virus guruhlarining xarakteristikalari

(Popkova i dr., 2005)

2 jadval.

Virus guruhlari ¹	Kriptogramma	Boshqa ma'lumotlar
Auroviruslar	(R/1; 2/5; E/E; S/Fu)	Kartoshka mop-top virusi (vektori <i>Spongospora subnerranea</i> zamburug'i) va bug'doyning amerika mozaikasi viruslari (vektori <i>Polymyxa graminis</i> zamburug'i) guruhi
Bromaviruslar	(R/1; 1,1/23 + 10/22 + 0.7/21; S/S; S/*)	Uch komponentli genomli qiltiqsiz yaltirbosh mozaikasi guruhiga mansub viruslar; vektorlari aniqlanmagan
Karlaviruslar	(R/1; */6; E/E; S/Ap)	Kartoshkaning S- va M-viruslari va chinnigulning latent virusi guruhi
Kaulimoviruslar	(D/2; 4,5/16; S/S; S/Ap)	Ikki ipli DNK li rangli karam mozaikasi virusi guruhi
Klosteroviruslar	(R/1; 4,3/5; E/E; S/Ap)	Lavlagi sariq kasalligi va sitruslar tristisasi viruslari guruhi; bu viruslarning zarrachalari eng uzun (2000 nm gacha) va (+)RNK molekulasi eng yirik (asoslar soni 20000 juftgacha)
Komiviruslar	(R/1; 2,3/34 + 1.5/28; S/S; S/Cl)	Ikki komponentli genomli sigirno'xat mozaikasi virusi guruhi. Rediska mozaikasi virusi ham ushbu guruhga kiradi
Kukumoviruslar	(R/1; 1,3/19 + 1.1/19 + 0.8/19;	Bodring mozaikasi virusi guruhi. Juda keng tarqalgan, 40 dan ko'p o'simlik oilalari

¹ Ba'zi boshqa guruhlar: beda mozaikasi virusi guruhi; tamaki nekrozi virusi guruhi; qashqarbedada shishlarni erta paydo qiluvchi virus guruhi; kakao novdalari deformasiyasi virusi guruhi (Vlasov, Larina, 1982).

	S/S; S/Ap)	turlarini zararlaydi. Fragmentar genomga ega. Pomidor aspermiyasi (urug'sizligi) virusi ham ushbu guruhga kiradi
Lyuteoviruslar	(R/1; 2/*; S/S; S/Ap)	Kartoshka barglari buralishi va arpa sariq pakanaligi viruslari guruhi. Floemadagi viruslar vektori – shiralar
Nepoviruslar	(R/1; 2,4/43 + 1.4-2.3/30-40; S/S; S/Ne)	Nematoda va urug' orqali tarqaladigan viruslar. Guruhga pomidor qora xalqa dog'lanishi virusi va b. kiradi
Poteksviruslar	(R/1; 2,2/6; E/E; S/O)	Kartoshka X-virusi guruhi. Guruhga kartoshkada mozaika va aukuba, qashqarbedada sariq mozaika qo'zg'atuvchilari ham kiradi
Potiviruslar	(R/1; 3.5/5; E/E; S/Ap)	Kartoshka Y-virusi guruhi. Guruhga loviya mozaikasi, olxo'ri chechagi va b. viruslar ham kiradi
Rabdoviruslar	(R/1; 4/2; U/E; S,I,V/Ap, Au,Di,O)	Virionlari (tashqi membranalari) o'q shaklli viruslar guruhi. Guruhga kartoshka sariq pakanaligi, boshqoli o'simliklar pakanaligi, umurtqali hayvonlarning vezikulyar stomatit va quturish hamda hasharotlar kasalliklari viruslari ham kiradi. Har xil hasharotlar vositasida tarqaladi
Timoviruslar	(R/1; 2/37; S/S; S/Ap)	Turneps sariq mozaikasi virusi guruhi. Kemiruvchi hasharotlar (qo'ng'izlar) vositasida tarqaladi
Tobamoviruslar	(R/1; 2/5; E/E; S/O)	Tamaki mozaikasi virusi guruhi. Guruhga bodring yashil mozaikasi, <i>Plantago</i> turlari mozaikasi va b. kiradi

Tobasviruslar	(R/1; 1.5/18; S/S; S/*)	Pomidor butasimon pakanalik virusi guruhi
Tobraviruslar	(R/1; 2,3/5 + 0.6-1.3/5; E/E; S/Ne)	Tamaki shaqildoqligi viruslari (<u>tobacco rattle virus</u>) guruhi. Kartoshka tukanaklarining etida nekrotik dog'lar hosil qiladi

Fitopatogen viruslar nomenklaturasi. Viruslar oralarida filogenetik aloqalar deyarli bo'lmagan bir necha sun'iy guruhlarga bo'lingan. Guruhlarning molekulyar va biologik belgilari quyidagi to'rtta kasr shaklidagi to'rt juft *kriptogramma* (raqamlar va harflar yordamida kodlangan ma'lumotlar) vositasida ifodalanadi:

1-nchi juft belgilar: nuklein kislota tipi (R – RNK, D – DNK) /**nuklein kislota zanjirlari soni** (1 – bir zanjirli, 2 – ikki zanjirli).

2-nchi juft belgilar: nuklein kislotasining molekulyar og'irligi (kD)/ **virus zarrachasidagi nuklein kislotasining foiz (%) hisobidagi miqdori.**

3-nchi juft belgilar: virus zarrachalarining shakli (S – sfera, E – uzunchoq) / **nukleokapsidlar shakli** (S – sfera, E – uzunchoq, U – murakkab struktura)

4-nchi juft belgilar: xo'jayin organizm (A – aktinomisetlarlar, B – bakteriyalar, S – urug'li o'simliklar, I – umurtqasiz hayvonlar, V – umurtqali hayvonlar, Fu – zamburug'lar) /

kasallik tashuvchi (vektor) (Ac – o'rgimchakkanalar, Al – oqqanotlar, Ai – chigirtkalar, Ap – shiralar, Au – saratonlar, Cc – koksiddar, Cl – qo'ng'izlar, Di – pashsha va chivinlar, Ne – nematodalar, Fu – zamburug'lar, Ps – barg burgachalari, Th - tripslar va b.).

O – belgi mavjud emas; * - belgi o'rganilmagan.

Ushbu belgilarga asoslanib viruslar guruhlarga bo'lingan. Har bir guruh tip namoyandasining nomi bilan atalgan. Ba'zi guruhlar haqidagi ma'lumotlar 4 jadvalda keltirilgan (Popkova i dr., 2005) .

Misol uchun TMV ning kriptogrammasi R/1; 2/5; E/E; S/O.

Xo'jayin organizmlar va kasallik tashuvchilari kodlarining bayoni

3 jadval.

Kod	Bayoni	
Ac	Acarina	(O'rgimchak)kanalar tartibi
Ai	Acrididae	Chigirtkasimonlar oilasi
Al	Aleyrodidae	Oqqanotlar oilasi
Ap	Aphididae	Shiralar oilasi
Au	Cicadidae	Saratonlar oilasi
Cc	Coccoidea	Koksidlar superoilasi (nadsemeystvo)
Cl	Coleoptera	Qo'ng'izlar turkumi
Di	Diptera	Ikkikanotlilar turkumi
Fu	Fungi	Zamburug'lar dunyosi
I	Invertebrates	Umurtqasiz hayvonlar
Ne	Nematoda	Nematodalar sinfi
Ps	Psyllidae	Barg burgachalari oilasi
Th	Thysanoptera	Tripslar tartibi
V	Vertebrates	Umurtqali hayvonlar

Viroidlar virussimon zarrachalar bo'lib, past molekularli bir zanjirchali RNK dan iborat va viruslardan farqli o'laroq, nukleoproteid zarrachalariga ega emas. Bu RNK o'simlik hujayrasining biosintetik sistemasiga qo'shiladi va viroid replikasiyasini ta'minlaydi (Popkova i dr., 2005).

Shunday qilib, tamaki kasalliklariga qarshi chidamlilik xususiyatlari ko'p sabablarga bog'liqdir. O'simliklarni himoya qilish butun bir sistemaga asoslanadi. Bu sistema tashkiliy xo'jalik agrotexnik, karantin, biologik, fizik-mexanik va kimyoviy tadbirlarni o'z ichiga olib zararli organizmlarni rivojlanishiga yo'l qo'ymaslik va yo'qotishdan iboratdir.

II. BOB.

Tamaki yetishtirish texnologiyasi

2.1. Dalani ko'chat o'tkazishga tayyorlash.

Maydonlarni ko'chat o'tkazishga tayyorlash texnologiyasi quyidagilardan iboratdir: maydonlar tamaki poyasi, ildizi, ildiz qoldiqlari va o'tmishdosh yekinlar qoldiqlaridan tozalanadi va kuzda 20-25 sm chuqurlikda shudgorlanadi. Bunda nishabi katta bo'lgan maydonlar ko'ndalangiga haydaladi. Tuproqqa ishlov berish erta bahordan boshlanib bunda nam qochmasligi uchun 2-3 marta borona qilinadi. Bu tadbirni diskali boronalardan o'tkazish maqsadga muvofiqdir.

Ko'chatni o'tkazishga 8-10 kun qolganda maydonlar 12-16 sm chuqurlikda chizel qilinadi.

Chizel qilingan maydonlar og'ir mola bilan zichlantiriladi. Bu esa tuproqda to'plangan namlikning saqlanishiga imkon beradi. Ko'chat uchun 30-40 sm kenglikdagi egatlar olinadi. Nishabi katta bo'lgan yerlarda egatlar sayozroq qilib olinadi. Basma va Dyubek navlari uchun 50 sm kenglikdagi egatchalar olinadi.

2.2. Ko'chat o'tkazish.

Tamaki navlariga qarab aprel oyining 3 chi o'n kunligidan may oyining birinchi o'n kunligigacha dalaga o'tkazish tavsiya etiladi. Tamaki ko'chatini birinchi navbatda tez yetiladigan, yo nishabi janubga yoki janubiy sharqqa qaragan yerlarda o'tqazish lozim.

Bunda ko'chatlar orasidagi masofa 2-10 sm bo'lishi lozim, ko'chatlar egatning yon tomoniga o'tqaziladi, erta bahordan nam tuproqqa yetarli bo'lganda ko'chatlar sug'orilmasdan dalaga o'tqaziladi. Ko'chatlarni ildizi uchi 3-4 sm chuqurlikda bo'lishi kerak. Ko'chat o'tqazish uchun qoziqchalar bilan chuqurchalar qilinadi.

Chuqurchaga ko'chat joylashtirilib, yonidagi tuproqlar zichlashtiriladi. Tuproq haddan tashqari quruq bo'lganida, ko'chat o'tqazilganidan so'ng bir ko'chat tagiga biroz suv qo'yilib ketiladi, bu esa ko'chatni ildiz tutishini tezlashtiradi va ildiz atrofidagi tuproqni yonida zichlashtiradi.

Ko'chatlarni 60-70 sm li traktor yordamida olingan egatchalarning ikki yoniga ekish mumkin. Bunda o'simlikda kichik o'lchamli barglar hosil bo'ladi. Agar lalmi joylarda tuproq juda quruq bo'lsa, u holda sug'orib ekish tavsiya etiladi. Lalmi maydonlarda tuproq namligi yetarli bo'lganda maydonlar chizellanib, 2-marta tekis molalanib, so'ngra qator orasi 40 sm qilib, ip tortilib ko'chat uchun chuqurcha cho'p bilan qilinadi va chuqurchaga ko'chat joylashtirilib tagiga biroz suv qo'yilib tuproq zichlantiriladi.

Basma navi 1 ga maydonga 250 ming Dyubek navi esa 170-250 ming dona tup hisobida o'tqaziladi.

2.3. Qator oralarini ishlash.

Ko'chatlar dalaga o'tqazilgandan so'ng 5-6 kun o'tgach dalani bir sira aylanib chiqib, tutmay qolgan ko'chatlarni aniqlash va xato joylariga darhol ko'chat o'tqazish lozim. Agar bu vaqtda tuproqda nam yetishmasa, qayta o'tqazilgan ko'chatlarga suv berish kerak. Xato o'tqazilgan ko'chatlar yirik va baquvvat bo'lishi lozim.

Agar ob-havo quruq kelsa, ko'chat o'tqazilgandan so'ng sug'oriladi. Qator oralariga ishlov berishni egatlardagi nam qochmasdan, yerni yirik qismi yorilib ketmasdan boshlashi lozim.

Ko'chat o'tqazilgandan 4-3 kun o'tgach, birinchi marta qo'lda chopiq qilinadi. Bunda asosiy e'tibor ko'chat atrofini yumshatishga, o'simlikning ildiz bo'g'ziga qaratish kerak. Qator oralariga ishlashda, pushtadagi yumshoq tuproq ko'chat yoniga tushiriladi va bir yo'la egat ichi ham yuza chopiladi.

Egat oralig'idagi va pushtidagi begona o'tlar ham bir yo'la chopib ketiladi.

2.4. Sug'orish tizimi.

Tamaki o'simligi, ko'p sug'orilganda quyidagi salbiy holatlar kelib chiqadi: o'simlik haddan ziyod o'sib ketadi, har bir qavatdagi barglarning o'lchami kattalashib ketadi, barglarni pishib yetilishi cho'zilib ketadi va aksariyat hollarda pishmay qoladi, barglarni qurishi qiyinlashadi.

Barglarning zararkunandalar bilan zararlanishi kuchayadi, barglarni unshudring bilan zararlanish imkoniyati kuchayadi. Xom ashyoning rangi to'q yashil rangda bo'lib, uni sifatini pasaytiradi, bargni materialligi pasayadi.

Tamaki ko'chatini o'tqazishda beriladigan suv o'tkazuvchanligini hisobga olib, egatlardan suvni jildiratib qo'yish lozim, shunda suv tuproqni yuvib ketmaydi.

Izmir ko'chatini dalaga o'tqazish uchun egatlardan suv qo'yish zaruriyati tug'ilganda egatlarni ham namlantirish zarur.

Ko'chat o'tqazilgandan 15-20 kun o'tgach, u to'liq ildiz oladi va o'simlikning barglari jadal sur'atda shakllana boshlaydi. Bu davrda tuproq va havo namligiga qarab tamakini iloji bo'lsa maydonlarni ikkinchi marta sug'orish mumkin. Agar bu davrda tuproq namligi yetarli bo'lsa, ikkinchi sug'orish o'tkazilmasa ham bo'ladi.

Tamaki barglarini pishish va yig'ish davrida sug'orish unda bachki novdalarni hosil bo'lishiga olib keladi, bargni materialligi pasayadi, shu bilan birga bargni pishib yetilishini uzaytirib yuboradi.

2.5. O'g'itlash

Tamakini o'g'itlash qo'yidagicha olib boriladi. Basma tamakisida azotli o'g'it 1-chi oziqlantirishda 25 kg/ga me'yorida ko'chat o'tqazilgandan 10-15 kun o'tqazilib, 2-chi oziqlantirishda 25 kg/ga me'yorida ko'chat o'tqazilgandan 30-35 kun o'tkazilib olib boriladi. 40 kg/ga R_2O_5 o'g'it 100 % kuzgi yoki bahorgi shudgor bilan beriladi.

Dyubek tamakisida esa xuddi Basma tamakisidagi kabi muddatlarda va usullarda o'g'itlar beriladi, ammo bunda N-100 kg/ga va K_2O 50 kg/ga me'yorida qo'llaniladi.

2.6. Barglarni yig'ish va quritish.

Barglarni pishirib uzib olish va barg qavatlari bo'yicha faqat pishgan barglarni tanlash ulardan yuqori, sifatli xom-ashyo olishni ta'minlaydi.

Barglarni uchidan boshlab sarg'ayishi, barg yuzasi to'liqinsimon bo'lib, uchlari va yonlari biroz yegilishi, ular qalinlashib va mo'rt bo'lib poyadan oson uzib olinishi barglarni pishganligini bildiradi. Barglarni uzib olishda ushbu belgilarni hammasi hisobga olinadi.

Agar barglar pishmagan bo'lsa ularni uzish maqsadga muvofiq emas. Pishmagan barglar yashil rangda bo'ladi va ular quritilgandan keyin pastki navga mansub bo'ladi.

Barglar har bir o'simlikda 2-3 dona, ayrim hollarda 4-5 donagacha pishgan bo'ladi.

O'sishi sust bo'lgan o'simliklardan pishmagan barglar uzilmay, kelasi uzuvga qo'yiladi.

Har bir o'simlikdan pishgan barglar ehtiyotlik bilan savatchalarga joylashtiriladi va daladan olib chiqib kelguncha ustiga ho'llangan latta yopib qo'yiladi.

Ezilgan va shikastlangan barglar quritish jarayonida qorayadi va sifati pasayadi.

Barglar odatda ertalab yoki kechki paytlarda uziladi. Shudring bilan bargni uzish yaramaydi. Pishib o'tib ketgan barglar ham xom-ashyo sifatini buzadi. Shuning uchun ham barglarni pishib o'tib ketishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Yig'ib olib kelingan barglar yerga tiziladi va quritiladi. Tizish ipini uzunligi 150 sm bo'lishi kerak. Bu ipni 120 sm ga barg tiziladi va har uchidan 15 sm dan bog'lash uchun ip qoldiriladi.

Ipga tuzilgan barglar soyada 12-24 soat davomida quritiladi. Quritilgan barglar sariq rangga kiradi. So'litish albatta soya joyda o'tkazilishi lozim.

Iplarni quritish bug'inlarida yerga tegmasligi va yerdan bir xil balandlikka bo'lishligiga ahamiyat beriladi.

Quritish bo'g'imlari ochiq joyda joylashtiriladi va bu jarayon ob-havo sharoitiga qarab 7-13 kun davom etadi.

Quritishda barg o'zagini butunlay qurishiga e'tibor beriladi. Agar barg o'zagi butunlay yaxshi qurimagan bo'lsa, ular toy ichida mog'orlaydi. Mahsulot sifatini pasaytiradi.

III-BOB.

3.1. TAMAKINING ZAMBURUGLI KASALLIKLARI

Rizoktonioz. Qo'zg'atuvchi organizm *Tbanatepborus cucumeris* bazidiomisetlar sinfiga oid zamburug' bo'lib, tuproqda vegetativ *Rhizoctonia solani* shaklida, odatda o'simlik qoldiqlarida saprofit sifatida yashaydi, ammo kasallikka moyil o'simlik turlarining ildizlari zararlangan tuproq zonasiga kirganda, zamburug' kuchli parazitga aylanadi.

Rhizoctonia solani bitta o'zi, yoki boshqa patogen zamburug'lar bilan birga nihol kasalliklarini barcha xillarini qo'zg'ata oladi. Zamburug' ekilgan chigitni chiritishi va nihollarni tuproq yuzasiga chiqishidan oldin yoki keyin kasallantirishi mumkin. Salqin ob havo tufayli nihollar o'sishi sekinlashgan yoki to'xtab turgan paytda zararlanishi kuchayadi. Ammo *Pythium ultimum* turidan farqli o'laroq *Rhizoctonia solani* havo isigandan so'ng ham ayniqsa, tuproq parazit bilan kuchli zararlangan holda nihollarni shikastlashni davom ettiraveradi. Zamburug' bilan zararlangan o'simlik qoldiqlari dalaga ishlovlar berish paytida kengroq joylarga tarqaladi va oqibatda parazit bilan nihollarning uchrashish ehtimoli oshishi mumkin. Parazit gifalar yordamida, odatda chin barglar chiqquniga qadar, nihol urug'palla, gipokotil va ildizning yumshoq to'qimalariga epidermisni teshib kiradi va keyingi ikki organda botiq qo'ng'ir qizg'ish-qo'ng'ir, keyinchalik to'q-qo'ng'ir, uzunligi 1-2 mm dan bir necha sm gacha bo'lgan dog'lar hosil qiladi. Bu dog'lar va yaralarda rivojlangan sarg'ish-qo'ng'ir gifalar yordamida zamburug' niholni ichki to'qimalariga o'tib, ularni chiritadi. Nihol poyasining tuproq yuzasiga yaqin qismi noziklashib halqasimon yara bilan qoplanishi, *Rhizoctonia solani* zamburug'i uchun xos xarakterli belgi bo'lib hisoblanadi, ammo bunday zararlanishning sababchisi *Thielaviopsis basicola*, *Pythium ultimum*, va *Fusarium spp.*, zamburug'lari ham bo'lishi mumkin. (Garber va boshq. 1996).

Zamburug' o'zidan chiqaradigan oksalat va boshqa organik kislotalar bilan to'qima hujayralarini o'ldiradi, selluloza va pektinaza fermentlari yordamida hujayra devorchalarini yemiradi, to'qimadagi oziqa moddalarini o'zlashtiradi, tez o'sadi va uning gifalarida uzoq vaqt saqlanishga mo'ljallangan, yo'g'on, to'q

qo'ng'ir sklerosiylar rivojlanadi. Vaqt o'tishi bilan sklerosiylar qora tusga kiradi va o'lchami 1 mm yoki kattaroq diametrga yetadi. Bu yo'g'on hujayra va sklerosiylar tuproqda, o'simlik qoldiqlarida, kasallikka moyil xo'jayin ekinni to'qimalari yana paydo bo'lguncha saqlanaveradi. Agar niholning kasallangan to'qimasi laboratoriyada qulay haroratda qoldirilsa, uning usti sarg'ish-qo'ng'ir gifalar bilan qoplanadi va zamburug' *Rhizoctonia solani* turi ekanligi mikroskopda oson aniqlanadi. Bu zamburug'ning asosiy zarari – dalada nihollarni chiritib, ularning sonini kamaytirib yuborishidir. AQShda o'tkazilgan tajribalarning ko'rsatishicha, ba'zi dalalarda nihollar soni *Rhizoctonia solani* ta'siridan 50 % gacha kamayar ekan (Presley, 1972).

Zamburug' har xil sabzavot, texnik va boshqoli ekinlarni ham kasallantiradi, ammo bir ekindagi populyasiya ikkinchi ekin uchun bezarar; misol uchun dalada kartoshkada rivojlangan sklerosiylar boshqa ekinlarni kasallantirmaydi. Bir ekin turi dalada uzoq yillar mobaynida o'stirilganda, tuproqda o'sha ekinni juda kuchli zararlaydigan populyasiya to'planib, yildan-yilga ko'payib borishi aniqlangan (Davis va b.q. 1981).

Rizoktonioz butun dunyoda, g'o'zada ayniqsa Xitoy, Misr, Hindiston, AQSh va boshqa mamlakatlarda keng tarqalgan, Markaziy Osiyoda ham barcha yerlarda, ko'proq markaziy va shimoliy mintaqalarda uchraydi (Rasulev, 1981).

Qora ildiz chirish. *Thielaviopsis basicola* nomli deyeromisetlar sinfiga oid zamburug' qo'zg'atadigan kasallik bo'lib, asosiy alomati – tamaki nihollarining ildizlarida po'stloq (qobiq) chirishi, kasallikning kam uchraydigan shakli esa – 1 yoki 2- chi barg terimidan so'ng boshlagan davrdan e'tiboran (avgust-sentyabr) ildiz bo'yinchasi (ayniqsa, uning ichki qismi) chirishi va o'simlik so'lishi bilan ta'riflanadi.



Zamburug' nihol ildiz tarmog'ining va poyaning tuproq sathidan pastki qismidan po'stloq va po'stloqning ustki pardasi (epidermisi) to'qimalariga kirib zararlaydi; zararlangan to'qimalar qorayib ketadi. Zamburug' kam hollarda ildizning ichki qismlari (endodermis, o'tkazuvchi tomirlar tarmog'i va uni himoyalovchi to'qimalar) ga o'tib zararlashi, bunda kasallangan nihol ildizi po'stlog'ini qo'l bilan oson sidirib olish mumkinligi va ildizning ichki qismlari zararlanmaganligini ko'rish mumkin. Odatda kasallangan niholning o'q ildizi

sog'lom o'simliknikiga nisbatan ancha noziklashadi. Kasallik kuchli rivojlanganda, nihollarning o'sishi juda sekinlashadi, bo'yi past bo'lib qoladi va ularni tuproqdan oson sug'urib olish mumkin bo'ladi. Qora ildiz chirishi va boshqa nihol kasalliklari qo'zg'atuvchilari uchun haroratning past (4-15 °S) va namlikning yuqori bo'lishi (yomg'ir) juda qulaydir. Bunday sharoitda kuchli yoki juda kuchli zararlanish kuzatiladi (Davis va b.q. 1996).

Kasallik nihollarda 2-4 hafta davom etgandan so'ng, harorat 20-25 °S ga ko'tarilishi bilan chirigan po'stloq va epidermis to'qimalarining o'rniga po'stloqning ichki qismlaridan yangi to'qima (periderma) o'sib chiqadi. Chirigan to'qimalar 1-2 hafta ichida archilib, tushib ketadi va nihol kasal bo'lganini alomatlari deyarli qolmasligi ham mumkin. Shuning uchun qora ildiz chirish kasalligi ko'pincha unib chiqqan nihollar sonini kamaytiradi.

Qora ildiz chirishining yoz yoki kech kuzda tamakida uchraydigan xili nihol kasallanishining davomi bo'lib u, barglarning poyadan tushib ketmasdan, poya yosh to'qimalarining birdan so'lishi bilan ta'riflanadi. Bunday o'simlik, xuddi yashin urgandek to'satdan qurib qoladi. Kasallikning yaqqol ko'rinadigan alomati – ildiz bo'yinchasi va uning yuqori tomoni (10-12 sm balandlikkacha) juda sezilarli darajada yo'g'onlashib qo'ng'ir yoki to'q-qizg'ish rang olishi hisoblanadi. *Thielaviopsis basicola* niholning to'qimalariga kirgandan so'ng 2-4 kun ichida ildizning ustki qismlarida ikki xil spora hosil qiladi: fialokonidiya (endokonidiya) va artrospora (xlamidospora). Fialokonidiyalar tagi shish va ustki qismi silindrsimon konidioforalar ichida rivojlanadi. Ular silindr shaklida ikki tomoni ham silliq, rangsiz bir hujayrali, o'lchamlari 8-20x4-6 mkm.

Artrosporalari qalin devorchali, to'q-qo'ng'ir, disk shaklida, zanjirsimon. Har bir zanjir 4-8 ta artrosporadan iborat, zanjirning eng pastdagi sporasi rangsiz. Zanjirlar o'lchami 24-55x8-16 mkm, alohida sporalarniki 10-17x5-8 mkm. Laboratoriyada agarli oziqa muhitlarida zamburug' koloniyalarining rangi kul rang.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, qora ildiz chirish kasalligi keng tarqalishi uchun shart – tuproqda zamburug' propagulalari miqdori eng kamida 50 yoki undan

ko'proq bo'lishi kerak ekan: AQSh janubiy-g'arbiy shtatlarining qora ildiz chirish ko'p tarqalgan dalalarida zamburug' propagularining miqdori 1 g tuproqda 50-750 tani tashkil etishi aniqlangan (Davis va b.q. 1996).

Dalalarda o'sayotgan kasallikka moyil xo'jayin o'simliklarning yo'qligida zamburug' artrosporalari «fungistazis» hodisasi mavjudligi tufayli, tuproqda o'smasdan bir (Karimov, 1980) yoki ko'p (Rasulev, 1981) yillar davomida saqlanadi. Kasallikka chalinishga moyil ekin turi (masalan g'o'za, tamaki, pomidor, karam, kartoshka va boshq.) ekilgach, nihollar ildizlaridan chiqaradigan organik moddalar fungistazisni «buzadi» va zamburug' sporalari «uyg'onib», o'sishni boshlaydi va nihollarni zararlaydi.

Thielaviopsis basicola keng ixtisoslashgan polifag, g'o'zani, dukkakli, sabzavot, texnik ekinlarni, tamakini, gullar va manzarali o'simliklarni hamda begona o'tlarni zararlaydi. Ayniqsa dalalarda keng tarqalgan salomalaykum, ajriq, eshaksho'ra, qora kurmak (shamak) va sutcho'p kabi begona o'tlar qora ildiz chirish bilan ko'p kasallanadi (Klimova,1979). Kasallikka chalinishga moyil o'simlik turlariga yuzga yaqin (Karimov,1976), boshqa manbalarga ko'ra (Mojina va b.q.,1984) – 200 dan ortiq. G'o'za navlari ichida qora ildiz chirishga yuqori chidamlilari yo'q, faqat kasallanish darajalari har xil bo'lganlari mavjud. Tadqiqotlarda tekshirilgan navlarning aksariyati kasallikka chalinishga moyil (Rasulev, Kravsova, 1971; Rasulev, Tagirova, 1971; Rasulev va b.q., 1974; Shakirov, Tagirova, 1980).

Parazit nihollar sonini 36 foizgacha kamaytirishi haqida ham ma'lumot bor (Karimov, 1976), ammo bu hol *Thielaviopsis basicola* zamburug'ining boshqa parazit turlar bilan birgalikdagi ta'siri oqibatida kuzatilgan bo'lishi mumkin, chunki qora ildiz chirish nihollarni nobud qilishi mumkinligi boshqa olimlarning ko'p yillik kuzatuv natijalariga (Davis va boshq.,1981, Garber, va boshq.,1996) mos kelmaydi.

Qora ildiz chirishning ekinga asosiy salbiy ta'sirlari – nihollar ildiz tarmog'ining faoliyati buzilishi tufayli bo'yi past, nimjon bo'lib qolishi, o'sish va

